

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyul

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 1685,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 147,3 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 37,2 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1266,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.


Viloyatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 12,0 foizga oshishiga olib keldi. 2018 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1685,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (37,2 %), transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi,%



2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (147,3 %),sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (127,9 %) me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (124,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,4 %), bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar - 121,2 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 112,3 % me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati – 106,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari—115,3 %, ni tashkil etgan.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (90,6 %) ustunlik qiladi.


2018 yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Savdo xizmatlari ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida eng yuqori hajmni - 627,0 mlrd. so'mni tashkil etadi.



Shu bilan birga, transport xizmatlari hajmi - 317,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 238,3 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 115,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida viloyat bo'yicha ko'rsatilgan jami bozor xizmatlari hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1685,6	112,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	115,1	113,4
Moliyaviy xizmatlar	238,3	147,3
Transport xizmatlari	317,5	103,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	307,0	103,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	54,6	108,6
Savdo xizmatlari	627,0	110,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	45,8	100,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	55,3	108,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	29,1	127,9
Ijara xizmatlari	41,2	105,5
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	53,4	104,0
Shaxsiy xizmatlar	50,7	101,2
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	13,5	124,9
Boshqa xizmatlar	44,2	106,2

Viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: N.Xoliqov

(71) 230-83-58